

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
INTERNATIONAL
COPERNICUS

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 613 sahifa.
2025-yil, 27-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG‘URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQARISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEXANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Ҳақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Абдорбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojiakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoir Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	496
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
Ibrohimov D.M.	
O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	507
Saparov Islom O'lmasovich	
RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLARINING QISHLOQ XO'JALIGIGA TATBIQI	514
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI KAPITALI TARKIBIDA DAROMAD MANBALARINING ULUSHI VA KAPITALLASHUV JARAYONIDAGI O'RNI	520
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA INSTITUSIONAL HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI TAHLILI	524
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI	528
Bobojonova Sevara Baxrombek qizi	
MINTAQA SANOATI RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDA TIJORATLASHTIRISHNI "SMART" MODEL I	533
Norov Murodjon Maxmudovich	



TOMORQADAN SAMARALI FOYDALANISH- KAMBAG'ALLIK MUAMMOSINI YUMSHATISHNING MUHIM OMILI	539
Xamidjon Shaxobov	
SUG'URTA KORXONALARIDA REZERVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	544
Najimova Nigora	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHDA XITOY BOZORINING O'RNI	549
Mardanov Aziz Yusupovich	
THE IMPORTANCE OF GREEN ENERGY IN THE ECONOMY OF FERGANA REGION: CURRENT TRENDS AND PROBLEMS	555
Khayrullaev Zoidjon	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNING UNDIRILISHI BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	559
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	563
Muyassarzoda Fayziyeva	
MOLIYAVIY MEXANIZM SIFATIDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BELGILASHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	570
Abdullayev Erkinjon A'zamovich	
MAMLAKAT YAIM QO'SHILGAN QIYMAT HAJMINI STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL USULLARI ASOSIDA PROGNOZLASH	578
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
XALQARO TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	585
Eshtaev Alisher Abdug'aniyevich, Ivatov Irisbeg	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT TIZIMLARINI AVTOMATLASHTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	590
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
JAHON SEMENT SANOATIDAGI TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTONNING BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	595
Abdujabbarov Abdulaziz Abdurashid o'g'li	
РОЛЬ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	600
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
BARQAROR MOLIYAVIY RENTABELLIK BANKLARNING DAROMADLILIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA.....	606
Umarov Davron Shavkatovich	

BARQAROR MOLIYAVIY RENTABELLIK BANKLARNING DAROMADLILIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA

Umarov Davron Shavkatovich

TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarining moliyaviy barqarorligining nazariy va ilmiy asoslari tadqiq etilgan, unda bank daromadining o'ziga xos jihatlari o'rganilgan. Mavzuga oid xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar tizimlashtirilgan hamda ularga nisbatan mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan. Tadqiqotlar asosida bank daromadlari asosida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlarining nazariy asoslari tizimlashtirilgan.

Kaliit so'zlar: bank daromadi, foizli daromadlar, foizsiz daromadlar, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. The theoretical and scientific foundations of the financial stability of commercial banks are studied in the article, and specific aspects of the bank's income are studied. Researches carried out in foreign and local scientific literature on the topic are systematized and author's approaches to them have been developed. On the basis of research, the theoretical foundations of the directions for ensuring financial stability based on bank income have been systematized.

Keywords: bank income, interest income, non-interest income, financial stability.

Аннотация. В статье изучены теоретические и научные основы финансовой устойчивости коммерческих банков, а также рассмотрены особенности формирования доходов банка. Систематизированы исследования, проведенные в зарубежной и отечественной научной литературе по теме, и разработаны авторские подходы к ним. На основе исследования систематизированы теоретические основы направлений обеспечения финансовой устойчивости на основе банковских доходов.

Ключевые слова: банковские доходы, процентные доходы, непроцентные доходы, финансовая устойчивость.

KIRISH

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy subyektlarning asosiy maqsadi — foyda olish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash orqali o'z faoliyatining uzoq muddatli samaradorligini oshirishdan iboratdir. Mazkur jarayonda moliyaviy rentabellik kategoriyasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, tijorat banklarining faoliyatini baholashda eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Rentabellik darajasi korxona yoki bankning resurslardan qay darajada samarali foydalanganligini, ularning moliyaviy boshqaruv tizimi qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilganini hamda investitsion qarorlarning sifatini ifodalaydi.

Tijorat banklari moliyaviy tizimning markaziy instituti sifatida iqtisodiyotda kapital aylanishi, kredit resurslarini taqsimlash va moliyaviy vositachilik jarayonlarida bevosita ishtirok etadi. Shu bois ularning barqaror moliyaviy rentabelligi — nafaqat bankning ichki boshqaruv samaradorligini, balki butun iqtisodiy tizimning moliyaviy sog'lomligi darajasini belgilovchi strategik mezon hisoblanadi. Bank faoliyatida daromadlilikning o'sishi va barqarorligi kapitalning aylanish tezligi, aktivlar samaradorligi hamda foizli va foizsiz daromadlar o'rtasidagi mutanosiblik bilan chambarchas bog'liqdir.

Ilmiy nuqtai nazardan qaralganda, rentabellik — bu kapital va aktivlardan olingan daromadning ularga sarflangan xarajatlarga nisbati bo'lib, u iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi integral ko'rsatkich sifatida talqin qilinadi. Moliyaviy nazariya vakillari (J. Keynes, F. Knight, G. Markowitz, M. Friedman va boshqalar) ta'kidlaganidek, rentabellik darajasi nafaqat iqtisodiy foydaning miqdoriy ifodasi, balki risk va tavakkalchilik sharoitida qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlarning natijasidir. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining rentabelligi risk va rentabellik o'rtasidagi muvozanatni saqlash, diversifikatsiya siyosatini amalga oshirish va likvidlikni boshqarish darajasi bilan uzviy bog'liqdir.

Tijorat banklarida rentabellik ko'rsatkichlari bir necha yo'nalishda tahlil qilinadi:

1. Kapital rentabelligi (ROE) — bankning o'z mablag'laridan foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, bank aksiyadorlari uchun investitsiya jozibadorligi shunchalik kuchli bo'ladi.

2. Aktivlar rentabelligi (ROA) — bankning jami aktivlari hisobiga olingan sof foydani bildiradi va u faoliyatning umumiy samaradorligini ko'rsatadi.



3. Foizli va foizsiz daromadlar ulushi — bankning daromad manbalari diversifikatsiyasini tahlil qilishda muhimdir. Foizli daromadlar kredit operatsiyalariga, foizsiz daromadlar esa xizmat haqlari, komissiyalar va investitsiya operatsiyalariga asoslanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, banklarda rentabellikni ta'minlovchi asosiy omillar sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- moliyaviy boshqaruvning strategik yondashuvi;
- aktiv va passivlarni optimal nisbatda boshqarish;
- risklarni diversifikatsiyalash va monitoring qilish tizimini takomillashtirish;
- kapital bazasini mustahkamlash va likvidlikni boshqarishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, kapitaldan oqilona va o'z vaqtida foydalanish bank rentabelligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Kapitalning aylanma tezligi oshgani sari, foyda hajmi ham o'sadi va bu banklarning umumiy daromadlilik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, aktivlarning rentabelligi bankning moliyaviy faoliyatidagi risk darajasini aks ettiradi. Agar aktivlar tarkibida yuqori riskli kreditlar ulushi ortib borayotgan bo'lsa, daromadlilikning o'zgaruvchanligi ham kuchayadi. Shuning uchun banklar risklarni boshqarishning zamonaviy vositalarini — stress-testlash, Value-at-Risk (VaR), Basel III talablari asosidagi kapital yetariligi indikatorlarini qo'llash orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi zarur. Tijorat banklarida barqaror moliyaviy rentabellikni ta'minlash — bu faqat foyda olish masalasi emas, balki moliyaviy xavfsizlik, investitsion jozibadorlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning kompleks jarayonidir. Shu sababli, bank tizimida rentabellikni oshirish strategiyasi milliy moliyaviy tizimni mustahkamlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy va amaliy e'tiborni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi kunda O'zbekistonda ko'plab davlat banklarining kapitali tarkibida davlat ulushini qisqartirish va shu orqali ularni xususiylashtirishga qaratilgan islohotlar nazarda tutilmoqda. Bu esa, banklarning investitsion jozibadorligini ta'minlashda moliyaviy rentabellikning muhim ahamiyatga ega ekanligini o'zida ifodalab beradi.

2024-yil mart oyida Toshkentda bo'lib o'tgan forumda Fitch Ratings agentligi direktor o'rinbosari Pavel Kaptel mamlakatimizdagi banklarni xususiylashtirish jarayonlari yuzasidan o'zining xulosalarini bayon etdi [1]. Uning fikricha, davlat banklarining xususiylashtirilishi jarayonida ularning rentabellik ko'rsatkichlarini oshirishi zarur, bu esa ularning jozibadorligini ta'minlashga xizmat qilib, xususiylashtirish jarayonini tezlashtirishga olib keladi.

Shuningdek, mamlakatimizda bank tizimining 2024-yil birinchi yarim yilligidagi sof foydasi 5,5 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich 2023-yilning shu davriga nisbatan 10 foizga yoki 560 mlrd so'mga kamayganligini qayd etish lozim. O'tgan yilga nisbatan sof foydasi oshgan banklar orasida davlat banklari ulushi mavjud bo'lsa-da, ularning soni kichikligicha qolmoqda. Jumladan, Biznesni rivojlantirish banki 2024-yilning yarim yilligini –378,1 mlrd so'm zarar bilan yakunlaganini ko'rsatish mumkin [2]. Umuman olganda, moliyaviy zarar bilan faoliyat yuritgan banklar tarkibida ham davlat, ham xususiy banklarning mavjudligi qayd etiladi. Bu esa, umumiy makroiqtisodiy tendensiyalarning salbiy xususiyat kasb etayotganligini ham o'zida aks ettiradi, deb o'ylaymiz.

Prof. A. Bektemirov va boshqalar o'zlarining tadqiqotida tijorat banklari faoliyati samaradorligini baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishgan [3]. Ularning fikricha, aktivlar rentabelligi (Return on Assets – ROA) ko'rsatkichi bank rahbariyatining faoliyat samaradorligini ifodalasa, bank kapitali rentabelligi (Return on Equity – ROE) koeffitsienti bank aksiyadorlari uchun daromadlilik mezonini sifatida qaraladi. Shuningdek, ular bank daromadlilik ko'rsatkichlarini quyidagi jihatlar orqali ifodalashga e'tibor qaratadilar: sof foizli daromadlarning jami aktivlarga nisbati, kreditlardan olingan foizli daromadlarning jami kredit qo'yilmalarga nisbati, sof foizli daromadlarning jami majburiyatlarga nisbati hamda sof foizli marjaning jami aktivlarga nisbati.

S. Ziyodullaev bank aktivlarining rentabelligini baholashga qaratilgan o'zining yondashuvlarini ishlab chiqishga harakat qilgan [4]. U tadqiqotlari davomida TIF Milliy bank va AT Asakabankda aktivlarning rentabellik darajasi rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan. Uning fikricha, sof foydaning o'sish sur'ati bilan jami aktivlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir. Shuningdek, banklarning investitsion faoliyati tarkibida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar hajmini oshirish orqali foizli daromadlar ko'lamini kengaytirish lozimligini taklif etadi.

Q. Hamrayev o'zining doktorlik dissertatsiyasida investitsion fondlarning rivojlanish tendensiyalarini o'rganadi. Jumladan, u fond aktivlarining rentabelligini baholashga e'tibor qaratadi. Uning fikricha, investitsion faoliyatda moliyaviy vositachilik sifatida banklarning roli kamayib borayotganligini ta'kidlaydi [5].

Tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchi, tijorat banklarida daromadlilik darajasining barqarorligini ta'minlash aktivlarning rentabelligi bilan ifodalansa, samarali moliyaviy boshqaruv natijasi esa kapital rentabelligi bilan izohlash maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

Ikkinchidan, banklarning nobarqaror daromadlilik darajasi aktivlarning bir tarmoqqa to'planib qolishi natijasida aktivlar rentabelligi tushib ketishi oqibatida shakllanishi mumkin.

Umuman olganda, banklarning rentabelligi turli rakurslardan baholanganida turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin. Bunda aktivlar rentabelligini oshirishda riskka tortilgan aktivlar ulushining yuqori bo'lmashligi, kapitaldan foydalanishda esa uni barqaror yo'nalishlarga sarflash kabi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalada bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularning natijalari bank faoliyati samaradorligining ilmiy-nazariy asoslarini yanada boyitadi. Avvalo, ingliz tilida amalga oshirilgan ayrim ilmiy izlanishlarni ko'rib chiqamiz.

H. Sujud va boshqalar tomonidan Livan banklarida bank innovatsion xizmatlarining bank daromadlilikiga ta'siri o'rganilgan [6]. Mualliflar mobil ilovalar, debet va kredit kartalar emissiyasi, bankomatlar o'rnatilishi, internet-banking hamda pul o'tkazmalari xizmatlari kabi innovatsion elementlarning bank aktivlar rentabelligiga ta'sirini baholaganlar. Ularning fikricha, ushbu innovatsion xizmatlarning rivojlanishi banklarning umumiy rentabelligini oshirib, natijada daromadlilik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ular an'anaviy bank xizmatlariga tayanish orqali daromad olishdan ko'ra, innovatsion xizmatlarning kengaytirilishi rentabellikning barqaror o'sishiga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

P. Klassen va hammualiflar o'z tadqiqotlarida banklarning daromadlilik ko'rsatkichlarini boshqariladigan kapital rentabelligi (RAROC), kapital rentabelligi (ROE) va aktivlar rentabelligi (ROA) o'zaro uyg'unligi nuqtai nazaridan tahlil qilganlar [7]. Ular Du Pont modeli asosida moliyaviy nisbatlar va risk omillarining o'zgarishi rentabellik darajalariga qanday ta'sir etishini o'rganishgan. Tadqiqot AQSh banklari faoliyatining 1992–2014-yillar oralig'idagi ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan bo'lib, u moliyaviy natijalarning risk omillari bilan o'zaro bog'liqligini empirik tarzda isbotlab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Biz mazkur tadqiqotning metodologik asoslarini quyidagicha ko'rishimiz mumkin.

$$RoA = \frac{R - C}{EA} = \frac{R}{EA} \left(1 - \frac{C}{R} \right)$$

$$RAROC = \frac{R - C - EL}{RRC} = \left(RoA - \frac{EL}{EA} \right) \cdot \frac{EA}{TA} \cdot \frac{TA}{RRC}$$

$$RoE = \left(RAROC - \frac{UL}{RRC} \right) \cdot \frac{RRC}{Equity} \cdot \frac{PAT}{PBT}$$

R – daromad (revenue), S – xarajatlar (costs), EA – daromadli aktivlar (earning assets), EL – kutilgan yo'qotish (expected loss), TA – jami aktivlar (total assets), RRC – risk zaxirasi uchun kapital (risk-required capital), PBT soliqdan oldindigi daromad (profit before tax), PAT – soliqdan keyingi daromad (profit after tax), Equity – aksiyadorlik kapitali (shareholder equity).

A.Sokol va boshqalar hammuallifligida bajarilgan tadqiqotda banklarning kapital va aktivlar rentabelligining o'zgarish tendensiyasiga kredit riski nisbati (CRR, Credit risk ratio)ning ta'sirini baholashga e'tibor qaratadi [8]. Kredit riski nisbatini aniqlashda ular quyidagi formuladan foydalanishadi:

$$CRR = \frac{GV \text{ of } DLL + \text{related Interest}}{TNB \text{ loans} + \text{related interest} - OBS} \times 100$$

Bu yerda, GV of DLL – shubhali va umidsiz kreditlarning yalpi qiymati, related interest – mos ravishda foizlar bo'yicha hisoblangan qiymat, TNB loans – jami va no-bank kreditlar, OBS – balansdan tashqari operatsiyalarni anglatadi.

Yuqoridagi tadqiqotlarda tijorat banklarining daromadlilikini ta'minlash va baholashda kredit riski bilan bog'liq ko'rsatkichlardan foydalangan holda rentabellik ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Umuman olganda, banklarning daromadlilikiga to'g'ridan ta'sir etuvchi rentabellik darajasining shakllanishiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi moliyaviy ko'rsatkichlar tizimlashtirilgan. Ularning aksariyati rentabellikka ta'sir etuvchi omillarni turli jihatlardan shakllanishi bo'yicha tahlillarni amalga oshirgan.

Bizningcha, ko'plab tadqiqotlarda banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarning riskka uchrashi nuqtai nazaridan yondashilganligini kuzatish mumkin. Bunda rentabellik ko'rsatkichlarining banklarning moliyaviy faoliyatini amalga oshirishda vujudga keladigan risklarning ta'sirini pasaytirish orqali banklarning daromadlilikini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Bu esa, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda oldindan qarorlarni qabul qilishga bo'lgan imkoniyatlarni berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.



B.Kaprru va boshqlar tomonidan birgalikda bajargan tadqiqotida Yevropa banklarining daromadlilikini tahlil etishga e'tibor beradi [9]. Jumladan, 2004-2011 yillar oralig'ida Ruminiya, Vengriya, Polsha va Chexiya Respublikasi kabi davlatlardan 143 ta tijorat bankining daromadlilikini baholashga harakat qilgan. Ular banklarning aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi va oizli daromadlari kabi ko'rsatkichlarini tahlil etishga e'tibor berishgan. Bunda bank boshqaruvi samaradorligi, kapital monandligi oshib borishi har qanday holatda bank daromadlilikiga jobiy ta'sir etishini, kredit riski va inflyatsion jarayonlar aktiv va kapital o'rtacha rentabelligini aniqlashga xizmat qilishini ta'kidlab o'tishadi. Shuningdek, yirik banklarda foiz daromadlari bankning hajmiga nisbatan teskari proporsional ekanligini ham asoslab beradi


F.Sari va boshqalar hammualliflikda amalga oshirgan tadqiqotda aktivlar rentabelligining shakllanishiga ta'sir etuvchiko'rsatkichlarni tizimlashtirib beradi [10]. Ularga ko'ra, kapital monandligi, krreti-depozit nisbati, qaytarilmagan kreditlar, foizli daromadlari, operatsion xarajatlarning operatsion daromadlariga nisbati ko'rsatkichlarining 2013-2017-yillarda Indoneziya valyuta birjasida listinga kiritilgan 35 ta tijorat banklari faoliyatida vujudga kelgan tendensiyalarni tahlil qilib, ilmiy xulosalarini shakllantirib beradi. Ular xulosalariga binoan, aktivlar rentabelligiga foizli daromadlar o'rtasida kuchli ijobiy bog'liqlik mavjudligini, kredit-depozit nisbati ta'sirga ega emasligi va kapital monandligi, qaytarilmagan kreditlar va operatsion faoliyat teskari ta'sirga ega ekanligini asoslab berishadi.

Bizningcha, banklarning faoliyat rentabelligiga turli davlatlarda banklarning bir xususiyatdagi moliyaviy faoliyat ko'rsatkichlari turlicha ta'sir etuvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa, har bir bankning faoliyat ko'rsatkichlari o'z rentabelligiga o'ziga xos tarzda ta'sirga ega ekanligini xulosa qilish mumkin. Bu esa, banklar faoliyatida moliyaviy barqarorlikning ta'minlanishida daromadlar barqarorligida rentabellikni ta'minlash individual xususiyatga ega bo'lishini ifodalab beradi. Shu boisdan, tijorat banklari faoliyatida rentabellikning rivojlanish tendensiyalarida umumqabul qabul qilingan yondashuvlar asosida baholash maqsadga muvofiq ekanligini inobatga olish zarur hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz tadqiqotlarimiz davomida ko'rib o'tgan DuPont modelini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur model moliyaviy rentabellikni baholashning tabaqalashtirilgan formulalarini o'zida aks ettirib, baholash piramidasi deb aytish ham mumkin.

Unga ko'ra, aksariyat hollarda kapital rentabelligini baholashga qaratilgan bosqichlarni o'z ichiga olishini qayd etish lozim. Ushbu metod orqali bankning ham balans, ham moliyaviy natijalar (daromad) to'g'risidagi hisobotlari ko'rsatkichlarini baholashga imkon beradi. Shuningdek, hisobot natijalarining umumiy jihatlariga e'tibor qaratib, investitsion faoliyatning tayanch xulosalarini shakllantirishga imkon beradi.



1-rasm. Moliyaviy nisbatlar (DuPont) piramidasi tahlil metodi [11]

Mazkur metod orqali kapital rentabelligining vujudga kelishi va uning barcha ta'sir etuvchi omillarini aniqlashga imkoniyat berib, moliyaviy qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlash lozim. Ushbu metod amerikalik moliyaviy tahlilchi, ekspert F.D. Brovn (Frank Donaldson Brown, 1885-1965 yy.) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning 1921-1924 yillarda General Motors (GM) Corporationning moliyaviy direktori bo'lib ishlagan paytlarda DuPont (1802 yilda tashkil etilgan Amerika-Fransiya kimyo sanoati kompaniyasi) kompaniyasi moliyaviy metodlarini qo'llash orqali GM korporatsiyasini boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga erishgan. Shu boisdan, hozirgi kunga qadar mazkur nomostidagi moliyaviy baholash piramidasi moliyaviy tahlilchilar tomonidan foydalanib kelinmoqda.

Banklarning har bir moliyaviy faoliyati va uning kapital rentabelligiga ta'sir qilish darajasini baholashda moliyaviy nisbatlar piramidasi (DuPont analysis) alohida rol o'ynashini ko'rish mumkin (1-rasmga qarang). Mazkur metod orqali bankning har bir moliyaviy faoliyat nuqtasining rentabellikni shakllantirishdagi rolini aniq tasavvur qilish va baholashga imkon berishini ta'kidlash lozim. O'z navbatida, qaysi va qanday tashqi va ichki omillarning moliyaviy barqarorlik yoki daromadlilik darajasiga ta'sirini aniqlashga xizmat qilishi bilan o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

Bizningcha, moliyaviy nisbatlar piramidasi asosida moliyaviy faoliyatning bosqilarini baholash aniq moliyaviy boshqaruv xulosalarini shakllantirishga shart-sharoit yaratib beradi. Bu esa, tashqi yoki ichki omillarning ta'sir miqyosini aniqlash asosida banklarning moliyaviy barqarorligini samarali boshqarishga xizmat qilishini ta'kidlash lozim.

A.Idris va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda Indoneziya Bank Tabungan Negara bankining 2019-2021 yillar mobaynidagi moliyaviy natijalarining rentabellik va sof foyda marjasi rakursidan foydalangan holda tahlil qilinadi [12]. Ularning fikricha, mazkur bankning moliyaviy natijadorligi past bo'lib, aktivlarning rentabelligi o'zining maqsad ko'rsatkichlariga yeta olmayotganligini qayd etib o'tadi. Shuningdek, ushbu bank o'zining aktivlari rentabelligi yilma-yil oshirish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlanadi. U quyidagi 1-jadvalda keltirilgan mezon ko'rsatkichlari (Indoneziya banki qoidalari) asosida o'z tadqiqoti tahlillarini amalga oshiradi:

1-jadval. Moliyaviy natijalar standart nisbati

Ko'rsatkich nomi	Monetar reguliyatr standarti	Yaxshi emas	Yaxshi	Juda yaxshi
Sof foyda marjasi	3% - 9,5 %	$\leq 0\% - 3\%$	$\geq 3,1\% - 9,5\%$	$\geq 9,6\%$
TATO (jami aktiv aylanmasi)	2 marta	≤ 2 marta	≥ 2 marta	≥ 2 marta
ROA	0,5 % – 1,25 %	$\leq 0\% - 0,5\%$	$\geq 0,6\% - 1,25\%$	$\geq 1,26\%$

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, sof foyda marja darajasining 3 foizdan ortiq bo'lishi, jami aktivlarning o'rganilayotgan muddat davomida kamida 2 marta aylanishi va aktivlar rentabelligi 1 foizdan kam bo'lmashligi holatlari mezon ko'rsatkichlari sifatida qayd etilganliinko'rish mumkin. Mazkur mezonlar yordamida banklarning moliyaviy natijalari samaradorligini baholashda foydalanishda ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Bizningcha, banklarning daromadlilik darajasini oshirishda uning rentabellik ko'rsatkichlarini bosqichma-bosqich shakllanish jaaryonlarida tahlil etilishi aktiv yoki kapitalning har bir harakatini tahlil qilishga imkon beradi ekan. Shu boisdan, rentabellikni bosqichma-bosqich tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

B.Kusi va boshqalar birgalikda amalga oshirgan tadqiqotda Gana banklarining moliyaviy natijalari to'g'risidagi ko'rsatkichlarning DuPont metodi asosida tahlil qiladi [13]. Ular bank daromadlarining kamayish davrida kapital rentabelligining o'zgarish tendensiyalarini baholashga e'tibor qaratishadi. Ular tomonidan kichik kvadratlar usuli regressiya metodidan foydalangan holda kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi omillar baholanadi. Unga ko'ra, mamlakatdagi xorijiy banklar daromadlar kamayishi davrida samarali faoliyat borgan bo'lsa, mahalliy banklar daromadlar kamayishidan oldin samarali faoliyat olib borganligi aniqlanadi. Shuningdek, kapital rentabelligiga operatsion foyda marjasi va aktivlar aylanmasi va livereji sezilarli ta'sir etadi etgan. Shu bilan birga, soliqlar daromad kamayishni boshlagunga qadar ijobiy ta'sir etganligi aniqlanadi.

B.Kusi va boshqalar tomonidan yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning davomi sifatida global moliyaviy inqirozi davrida va undan keyingi muddatlarda Gana banklarining daromadlilikini tahlil etadi [14]. Ular 2006-2012 yillarda 25 ta tijorat bankining moliyaviy natijalari baholaydi. Ularning fikricha, kapital rentabelligiga operatsion foyda, aktivlar aylanmasi, bank livereji (aktivlarning kapitalga nisbati), foizlar yuki kabi ko'rsatkichlar bank daromadlilikiga (kapital rentabelligi)ga ijoy va sezilarli ta'sir etayotganligini asoslab beriladi. Bank daromadlilikining 94 foiz tebranishini mazkur metod va ko'rsatkichlar orqali bilan yaxshiroq tushuntirib berish mumkinligini qayd etib o'tishadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, banklarning daromadlilikini baholashda uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. Jumladan, aktivlar va kapital rentabelligi, foizli daromadlarning shakllanishi kabi ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi aktivlar aylanmasi, soliq yuki, kapital aylanmasi, foizlar yuki va bank leviriji kabi omillarni tizimlashtirgan holda baholashlarni amalga oshirish asosida banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin ekan.

Fikrimizcha, banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi moliyaviy natijalar bilan birga, nomoliyaviy xususiyat kasb etadigan tshqi va ichki omillarni ham tizimlashtirish asosida baholashlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Nomoliyaviy xususiyat kasb etadigan ko'rsatkichlar sirasiga bank xodimlarining salohiyati, boshqaruv qarorlarining sifati va mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikning ta'minlashi kabi jihatlarni inobatga olish muhim hisoblanadi.

Banklarning moliyaviy barqarorligini shakllantirishda ularning daromadlilik darajasi asosiy omil vazifasini bajaradi ekan. Shu boisdan, banklarning daromadlilik darajasini tahlil qilib borish va unga mos ravishda moliyaviy qarorlarni qabul qilishda ichki va tashqi omillar, moliyaviy natijalarning ta'sirini baholash bank strategiyasini ishlab chiqishda asosiy elementlar shaklida gavdalanar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каптел П. Ўзбекистон давлат банкларини хусусийлаштириш яна кечроққа қолдирилиши мумкин — Fitch. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/03/19/privatization/>
2. Ўзбекистон банкларининг ярим йиллик соф фойдаси ўтган йил мос даврига нисбатан 560 млрд сўмга камайди. <https://bankers.uz/news/1611>
3. Бектемиров А., Маликова Д. М., Аҳмедов Ҳ. Ф. Тижорат банки фаолияти самарадорлигини ошириш истиқболлари // Journal of marketing, business and management. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 149-154.
4. Зиёдуллаев С. Тижорат банклари активларининг рентабеллигини оширишнинг долзарб масалалари // Economics and Innovative Technologies. – 2022. – Т. 10. – №. 5. – С. 43-48.
5. Ҳамраев Қ.И. Ўзбекистон Республикаси инвестицион фондларнинг соф активларидан самарали фойдаланишни эконометрик моделлаштириш: и.ф.б.ф.д. ... автореферат. – Урганч: УрдУ, 2020. -55 б.
6. Sujud, H., & Hashem, B. (2017). Effect of Bank Innovations on Profitability and Return on Assets (ROA) of Commercial Banks in Lebanon. International journal of economics and finance, 9, 35.
7. Klaassen, P., & van Eeghen, I. (2015). Analyzing bank performance—Linking RoE, RoA and RAROC: US commercial banks: 1992-2014. Journal of Financial Perspectives, 3(2).
8. Socol, A., & Danuletiu, A. E. (2013). Analysis of the romanian banks' performance through roa, roe and non-performing loans models. Annales Universitatis Apulensis: Series Oeconomica, 15(2), 594.
9. Căpraru, B., & Ilnatov, I. (2014). Banks' profitability in selected Central and Eastern European countries. Procedia Economics and Finance, 16, 587-591.
10. Sari, F. N., & Endri, E. (2019). Determinants of Return on Assets (ROA) On Conventional Banks Listed On Indonesian Stock Exchange (IDX) Period 2013–2017. IOSR journal of business and management (IOSR-JBM), 21(4), 52-62.
11. DuPont Analysis – A Pyramid of Ratios <https://365financialanalyst.com/knowledge-hub/financial-analysis/dupont-analysis-a-pyramid-of-ratios/>
12. Idris, A. A., & Hasbiah, S. (2023). Assessment Of Financial Performance at PT. Bank Tabungan Negara (Persero) Tbk Using The Dupont System Method Period 2019-2021. Economics and Business Journal (ECBIS), 1(3), 185-190.
13. Kusi, B. A., Ansah-Adu, K., & Agyei, A. (2015). Evaluating banking profit performance in Ghana during and post profit decline: a five step du-Pont approach. EMAJ: Emerging Markets Journal, 5(2), 29-40.
14. Kusi, B. A., Ansah-Adu, K., & Sai, R. (2015). Evaluating bank profitability in Ghana: a five step Du-Pont model approach. International Journal of Finance & Banking Studies (2147-4486), 4(3), 69-82.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100